

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>B.Shermuhammadov, O.Raxmatov</b> Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarni informatsion madaniyatini rivojlantirishning pedagogik tizimi.....	8
<b>B.Shermuhammadov, D.Namozova</b> Bo'lajak musiqa o'qituvchisining kreativ kompetentligini takomillashtirish modeli.....	13
<b>B.Shermuhammadov, B.Baratov</b> Bo'lajak o'qituvchilarni uzliksiz ma'naviy tarbiya jarayonida ma'naviy-madaniy fazilatlarini rivojlantirish shart-sharoitlari .....	18
<b>D.Yuldasheva, R.Bekmagambetova, Sh.Matkarimova</b> Bolalar poetik matnlarini pedagogik dizayn vositasida o'rgatish.....	22
<b>B.Qurbonova</b> Hamkorlik pedagogikasi asosida oliy ta'limda ta'lim jarayonini samarali tashkil etish .....	25
<b>I.Siddiqov</b> Bo'lajak tarix o'qituvchilarida informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari .....	29
<b>A.Xo'jayev</b> Kadrlar tayyorlash sifatini monitoring qilishda boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish .....	33
<b>X.Qodirov</b> Professional-pedagogik madaniyatning xossasi sifatidagi innovatsionlikning shaxsiyat darajasida namoyon bo'lish tasniflari .....	38
<b>B.Baydjanov</b> Bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda axborot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishga tayyorlash samaradorligi .....	42
<b>A.Turaxanov</b> Chaqiriqqacha harbiy ta'lim yo'nalishi talaba (kursant)larida jismoniy-taktik ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari .....	49
<b>R.Madaliyev</b> Talaba yoshlarning harbiy vatanparvarlik tarbiyasida artpedagogik vositalarning ahamiyati.....	52
<b>X.Yulbarsova</b> Bo'lajak sotsiologlarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida .....	56
<b>A.Soyibnazarov</b> Ta'limda yangicha yondashuv tahlili: smart ta'lim.....	62
<b>S.Kamchiyev</b> Ertalabki gimnastikani kichik va o'rta guruhlarda o'tkazish usullari va mohiyati.....	67
<b>N.Mamatqulova</b> Ta'limda kredit-modul tizimini qo'llashning ayrim jihatlari .....	71
<b>S.Sulaymanova</b> Tasviriy san'at fanlarida perspektivaning muhim ahamiyati va uning qo'llanilish xususiyatlari.....	75
<b>M.Aripjanova</b> Professional ta'lim o'quvchilarining kasbiy kompetensiyalariga talablar tahlili .....	80
<b>D.Yo'ldosheva</b> Akmeologik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirishning zamonaviy pedagogik usullari .....	83
<b>N.Dusimbetova</b> Bo'lajak jurnalistlarda axborot xavfsizligi kompetentligini rivojlantirishning amaliyotdagi holati.....	88
<b>T.Turgunbayev</b> Harbiy ta'limda milliy identiklik tarbiyasi asosida talabalarda (kursantlarda) vatanparvarlikni rivojlantirishning pedagogik shakli, metodi va vositalari .....	92
<b>N.Yuldasheva</b> Bo'lajak jismoniy madaniyat o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish borasidagi metodik yondashuvlar .....	95

**BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI O'QUVCHILARDA AXBOROT XAVFSIZLIGI  
KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHGA TAYYORLASH SAMARADORLIGI****ЭФФЕКТИВНОСТЬ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ К ФОРМИРОВАНИЮ  
НАВЫКОВ ИНФОРМАЦИОННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ У УЧАЩИХСЯ****EFFICIENCY IN PREPARING FUTURE TEACHERS TO SHAPE INFORMATION  
SECURITY SKILLS IN STUDENTS****Baydjanov Bekzod Xaitboyevich<sup>1</sup>****<sup>1</sup>Baydjanov Bekzod Xaitboyevich**

– Farg'ona davlat universiteti, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti dekani, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda axborot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishga tayyorlash tizimini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish maqsad qilingan. Tadqiqot ishi doirasida nazariy, empirik, matematik metodlardan foydalanilgan. Mazkur tadqiqot natijasida bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda axborot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishga tayyorlash tuzilmasi, mezonlari, darajalari, shuningdek, tadqiqot ishiga doir empirik ma'lumotlar keltirilgan. Maqola so'ngida xulosalar va ishlab chiqilgan ilmiy-metodik tavsiyalar bayon etilgan.

**Аннотация**

Целью данной статьи является разработка предложений и рекомендаций по совершенствованию системы подготовки будущих учителей к формированию навыков информационной безопасности у учащихся. В рамках исследовательской работы были использованы теоретические, эмпирические, математические методы. В результате данного исследования представлены структура, критерии, уровни подготовки будущих учителей к формированию навыков информационной безопасности у учеников, а также представлены эмпирические данные по исследовательской работе. В конце статьи излагаются выводы и разработанные научно-методические рекомендации.

**Abstract**

This article aims to develop proposals and recommendations for improving the system of preparing future teachers for the formation of information security skills in students. Within the framework of the research work, theoretical, empirical, mathematical techniques were used. As a result of this study, the structure, criteria, levels of preparation of future teachers for the formation of information security skills in students is presented, as well as empirical data. At the end of the article, conclusions and developed scientific and methodological recommendations are presented.

**Kalit so'zlar:** axborot, ko'nikma, tuzilma, komponent, mezon, daraja, axborot xuruji, axborot xavfsizligi, uzkuksiz ma'naviy tarbiya.

**Ключевые слова:** информация, навыки, структура, компонент, критерии, уровень, информационная атака, информационная безопасность, непрерывное духовное образование.

**Key words:** information, skills, structure, component, criteria, level, information attack, information security, continuous spiritual education.

**KIRISH**

Jahonning ko'pgina taraqqiy etgan davlatlarida global axborot xavfsizlik makonini yaratish dolzarb vazifaga aylandi, axborotlashgan jamiyatning jadallik bilan rivojlanishi tabiiyki, ta'lim-tarbiya jarayonida ham muayyan psixologik-pedagogik omillarni hisobga olishni taqozo etadi. Xususan, globallashtirish va axborotlashuv asri yoshlarga keng imkoniyatlar yaratishi bilan birga, ularning ma'naviy-axloqiy, jismoniy va intellektual rivojiga salbiy ta'sir etuvchi xatarlarni ham yuzaga keltiradi. Rivojlangan davlatlar, shu jumladan, AQSH, Fransiya, Germaniya, Rossiyada axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish va ta'lim oluvchilarni zararli axborotlar ta'siridan himoya qilishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Dunyoda aralash ta'lim sharoitida ta'lim oluvchilarning shaxsiy axborot xavfsizligini rivojlantirishning psixologik-pedagogik omillarini aniqlashtirish, bo'lajak o'qituvchilarda axborot bilan ishlash, kommunikativ kompetentlikni shakllantirishning didaktik tizimini takomillashtirishga doir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, ochiq axborot muhiti sharoitida bo'lajak o'qituvchilarda o'quvchilarni zararli axborotlar ta'siridan muhofaza qilish malakalarini rivojlantirish, ta'lim oluvchilarning informatsion-analitik kompetensiyasini shakllantirishning didaktik texnologiyalarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa, ta'lim oluvchilarni zararli

axborotlar xurujidan muhofaza qilishning innovatsion modellarini ishlab chiqish, bo'lajak pedagoglarda axborot xavfsizligi kompetentligini rivojlantirishning pedagogik mexanizmini takomillashtirishni taqozo etadi.

Respublikamizda ta'limni axborotlashtirish sharoitida bo'lajak pedagoglarda axborot-kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish, raqamli pedagogikani keng joriy etish orqali uzluksiz ta'lim jarayoni ishtirokchilarida axborot madaniyatini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, Internet jahon axborot tarmog'i orqali tarqatilayotgan g'arazli axborotlar, odob-axloqni yemiruvchi illatlar, yoshlarni zalolatga boshlovchi buzg'unchi g'oyalarga qarshi sog'lom dunyoqarashni shakllantirish uzluksiz ma'naviy tarbiyaning ustuvor yo'nalishi sifatida belgilab berilgan. Bu esa, bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda axborot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishga tayyorlash tizimini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish maqsadini ko'zlagan holda, bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda axborot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlashtirish, mazkur jarayonni amalga oshirish mazmuni, bosqichlari va pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirishni taqozo etadi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mamlakatimizda ta'lim oluvchilarda axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish va axboriy tahdidlarga qarshi kurashuvchanlik ko'nikmalarini tarkib toptirish M.Abdujabborova, A.Aripdjanova, U.Begimqulov, U.Yoziyeva, A.Ismanova, B.Xodjayev, M.Quronov, Z.Qosimova, D.Safarova, Muhammad Amin Yahyo kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Psixolog olimlar E.G'oziyev, S.Jalilova, V.Karimova, N.Safayev, G'.Shoumarovlar tomonidan talabalarning o'quv-bilish faoliyatiga axborot ta'sirining psixologik jihatlari; axborot xavfsizligini ta'minlashning falsafiy, huquqiy, ijtimoiy-siyosiy masalalari bo'yicha M.Abdullayeva, Z.Davronov, N.Dalimova, O.Davlatov, N.Jo'rayev, O.Raximov, J.Muxammadiyev, A.Mo'minov, I.Soliyev, B.Tuychiyev, J.Tulenov, B.To'rayev, G.G'affarovalar tomonidan o'rganilgan. Shuningdek, ta'limda axborot texnologiyalarini joriy etish, talabalarda Internet bilan ishlash madaniyatini rivojlantirish bo'yicha tadqiqotlar M.Aripov, N.Muslimov, Sh.Sharipov, S.G'ulomov va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlarida ham axborot xavfsizligini ta'minlash, yoshlarda axborot xavfsizligiga oid bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga doir ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, Yu.Bogatiryova, A.Dokolin, V.Mixaylovskiy, N.Nosov, N.Nurmeyeva, S.Lomasko, T.Yaglom, A.Shesternin kabilar axboriy tahdidlardan himoyalanih va jamiyatda axborot xavfsizligini ta'minlash mexanizmlariga oid ilmiy izlanishlarni olib borganlar.

Xorijlik olimlardan G.Atkinson, S.Dawn, Jon Lackie, Y.Masuda, Stamp Mark, M.Unland, Holkner Bernard kabilarning tadqiqotlarida talabalarda axboriy-analitik ko'nikmalarni shakllantirish masalalari tadqiq etilgan. Shuningdek, R.F.Abdeyev, D.Bell, Dj.Gelbreyt, P.Druker, V.Inozemsev, M.Kastels, I.S.Melyuxin, A.To'ffler, F.Uebsterlar axborot va axborot xavfsizligini ta'minlashning ijtimoiy-falsafiy jihatlari tadqiq etishgan.

Talabalarda axborot xavfsizligini ta'minlash muammosi bilan bog'liqlikda turli soha olimlari tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lsa-da, biroq bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda axborot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishga tayyorlash tizimini takomillashtirish masalasi maxsus tadqiq etilmagan.

Olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari jarayonida nazariy (tadqiqot mavzusi bo'yicha pedagogik, psixologik, maxsus adabiyotlar va me'yoriy hujjatlarni o'rganish; olingan ma'lumotlarni tahlil qilish, sintez qilish, taqqoslash, tasniflash, umumlashtirish, modellashtirish); empirik (pedagogik tajribasnov, kuzatish, so'rovnom, test o'tkazish); matematik (statistik ma'lumotlarni qayta ishlash, korrelyatsion tahlil va noparametrik tekshirish) usullardan samarali foydalanildi.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Glaballashuv jarayonida talaba-yoshlarda axborot iste'moli madaniyatini yuksaltirish bugungi kunning eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bu ularda axborotlarga bir yoqlama yondashish, ularga ko'r-ko'rona ergashish hamda noto'g'ri talqin etishning oldi olinadi. Axborot iste'moli madaniyati rivojlangan, axborotlardan ezgu maqsadlarda foydalanadigan shaxs, jamiyat va davlat turli g'arazli maqsadlarga qaratilgan geoaxborotlarning salbiy ta'siridan saqlanadi. Biroq axborot iste'moli madaniyatini shakllantirish murakkab jarayon sifatida kechadi. Bu ishlar ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida tizimli faoliyat olib borishni taqozo etadi.

Tadqiqotchi olimlar S.Lomasko va O.Davlatovlar tomonidan talabalarda axborot xavfsizligini ta'minlash kompetentligini rivojlantirishga doir asosiy me'yoriy hujjatlar (Davlat ta'lim standarti, o'quv rejasi)da alohida axborot xavfsizligi asoslariga doir maxsus fanni o'qitish ko'zda tutilmaganligi haqida xulosaga kelingan hamda mazkur jarayon ijtimoiy-gumanitar, matematika va tabiiy-ilmiy fanlar, umumkasbiy va ixtisoslik fanlari negizida amalga oshirilishi ko'rsatilgan. Shundan kelib chiqqan holatda integrativ yondashuv asosida talabalarda axborot xavfsizligini ta'minlash kompetentligini rivojlantirish tuzilmasi va komponentlari S.Lomasko tomonidan: yuridik (axboriy-huquqiy), administrativ, dasturiy-texnik, ijtimoiy-madaniy, O.Davlatov tomonidan: yuridik (axboriy-huquqiy), dasturiy-texnik, me'yoriy-metodik, ijtimoiy-madaniy ko'rinishida berilgan.

Yu.Bogatireva tomonidan o'quvchilarning axborot xavfsizligini ta'minlashda psixologik va pedagogik qo'llab quvvatlash: tashkiliy-pedagogik, mazmunli va texnologik komponentlar orqali amalga oshirilishi keltirilgani holda, bo'lajak pedagoglarni axborot xavfsizligi sohasidagi kompetensiyalari tuzilmasi quyidagi komponentlar orqali ifodalangan: kognitiv (axborot xavfsizligiga oid bilimlar), motivatsion-faoliyatli (faoliyat tajribasi va bajarish), aksiologik (qadriyatli yondoshuv).

A.Shesternin pedagogika oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarining axboriy kompetentligini quyidagi komponentlarini aniqlashtirgan: integrativ, kognitiv, faoliyatli va motivatsion.

Adabiyotlar tahlili, tadqiqotchi olimlar tomonidan ilgari surilgan qarashlar asosida "bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda axborot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishga tayyorlash" tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: "Bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda axborot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishga tayyorlash – pedagogika yo'nalishi talabalarini axborot sohasidagi huquqiy, axboriy-kognitiv, axboriy-analitik, tashkiliy-pedagogik hamda ijtimoiy-pedagogik faoliyatni amalga oshirishga yo'naltirish orqali o'quvchilarda shaxsiy axborot xavfsizligiga doir bilim, ko'nikma va malakalarni tarkib toptirishga qaratilgan maqsadli jarayon".

Mazkur tadqiqotlarimiz doirasida pedagogik-psixologik, ilmiy-metodik adabiyotlar, axborot xavfsizligi sohasidagi olimlar tomonidan yaratilgan manbalar va davlatimiz tomonidan qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar tahlili natijalariga ko'ra bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda axborot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishga tayyorlash tuzilmasini quyidagicha aniqlashtirdik va ajratib ko'rsatishni lozim deb topdik (1-jadvalga qarang).

1-jadval

**Bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda axborot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishga tayyorlash tuzilmasi**

Komponentlar	Mazmuni
<b>Yuridik (axboriy-huquqiy)</b>	Zararli axborotlar ta'siridan himoyalanih va axborot xavfsizligiga rioya qilishga doir me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalanish: <b>milliy qonunchilik normalari:</b> O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qaror va Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qaror va Farmoyishlari; <b>davlat organlarining metodik ko'rsatmalari:</b> axborot xavfsizligi standartlari, sohaga oid metodik ko'rsatmalar.
<b>Axboriy-kognitiv</b>	Axborot texnologiyalariga oid savodxonlikning mavjudligi, jumladan, avtomatlashgan axborot tizimlari va aloqa tarmoqlarida axborot xavfsizligini ta'minlash metod va vositalarini egallaganlik: soxta va ta'qiqlangan axborotlardan muhofaza qilish vositalari; zarur axborotlarni olishning qulay vositalari va dasturiy ta'minoti; axborotlar bilan ishlashda maxfiylik va axborotlar qimmatini hisobga olish. (Axborot texnologiyalari bo'yicha savodxonligi).
<b>Tashkiliy-pedagogik</b>	Pedagogik (axborot orqali ta'sir o'tkazish); psixologik (axborot urushi); aksiologik (qadriyatlar asosida xulq-atvorni shakllantirish); didaktik (ta'lim-tarbiya jarayonida axborot iste'moli madaniyatini to'g'ri shakllantirish); ma'naviy tarbiyaga oid (axborot vositasi orqali yoshga xos insoniy fazilatlarini avval shakllantirib so'ngra takomillashtirib borish).

## PEDAGOGIKA

<b>Axboriy-analitik</b>	Vositali (axborotlarni izlash va to'plash, saqlash, qayta ishlash, taqdim etish, axborotni tarqatish va axborot xavfsizligini ta'minlash); amaliy (faoliyatni amalga oshirish metod va vositalarini tanlashda talabaga erkinlik va mustaqillikni taqdim etadi); mustaqil izlanishga doir (mustaqil ravishda muammoni qo'yish hamda uni hal etish bo'yicha axborot-tahliliy faoliyatni amalga oshirish muddatlarini belgilash; axborotlarni izlash jarayonida to'plangan materiallarni tahlil qilish metodlarini aniqlashtirish va tanlash salohiyatini ishga solish).
<b>Ijtimoiy-pedagogik</b>	Bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda axborot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishga tayyorlashda davlat va jamoat tashkilotlarining ijtimoiy hamkorligi orqali quyidagilarni amalga oshirish: fazilat (kompetensiya)li yondashuv (o'quv dasturlari, ma'naviy-ma'rifiy ish rejaları asosida tayanch ma'naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirish); ta'lim-tarbiya mazmunini boyitish (ma'naviy tarbiya indikatorlari va fazilatlarini shakllantirishga xizmat qiluvchi bilim, ko'nikma va malakalarni amaliyotda qo'llay olish imkonini beruvchi amaliy mashq, topshiriq va pedagogik vaziyatlar bilan boyitish); manbalarni yaratishga majmuaviy yondashuv "Fazilatli avlod" ruknida o'quv-qo'llanmalar, uslubiy tavsiyalar, ma'rifiy adabiyotlar, media mahsulotlar, ilmiy-metodik qo'llanmalar ishlab chiqish).

Muammo yuzasidan zamonaviy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, asosiy o'lchov mezonlari shaxsni rivojlantirishning ko'proq yuqori darajasining egallaganligini aks ettiradi. Tadqiqotda quyidagi uch o'lchov mezonini aniqlashtirildi: 1) kognitiv; 2) faoliyatga doir; 3) aksiologik.

Tadqiqotda bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda axborot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllanganligini baholashda darajali yondashuvdan foydalanildi. Mazkur yondashuv har bir mezon bo'yicha bir darajadan boshqasiga o'tishda o'rganilayotgan jarayon dinamikasini tahlil qilish imkonini beradi.

Tadqiqot ishi davomida bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda axborot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishning quyidagi darajalari aniqlandi: reproduktiv (past), produktiv (o'rta), ijodiy (yuqori).

Yuqoridagi tuzilma asosida anketa va so'rovnomalari shakllantirildi. Tajriba-sinov ishlari Farg'ona davlat universiteti, Namangan davlat universiteti, Andijon davlat universitetining 150 nafar (77 nafar tajriba va 73 nafar nazorat guruhi) respondent talabalarini ishtirokida o'tkazildi.

Asoslovchi tajriba-sinov ishlari natijalari barcha guruhlarimizda deyarli bir xil ko'rsatkichda bo'lib, bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda axborot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishga tayyorlashning reproduktiv (past) darajasi 52,0%ni, produktiv darajasi 25,3% ni, ijodiy darajasi esa 22,7% ni tashkil etdi (2-jadvalga qarang).

**2-jadval**

**Bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda axborot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishga tayyorlashning o'rtacha ahamiyatlilik darajasi (asoslovchi bosqich)**


Guruhlar	O'zlashtirish darajasi		
	Reproduktiv	Produktiv	Ijodiy
Tajriba guruhlarini	51,9%	26,0%	22,1%
Nazorat guruhlarini	52,0%	24,7%	23,3%
<b>O'rtacha</b>	<b>52,0%</b>	<b>25,3%</b>	<b>22,7%</b>

Asoslovchi va ta'kidlovchi tajriba-sinov ishlari natijalari tajriba guruhida bo'lajak o'qituvchilarda o'quvchilarda axborot xavfsizligiga oid ko'nikmalarni shakllantirishga tayyorlash ko'rsatkichlarining reproduktiv darajasi o'rtacha 4,41 martaga kamayganligini ko'rsatadi. Aksincha, produktiv daraja 1,6 marta va ijodiy daraja 2,11 martaga ortganligi haqidagi xulosaga kelish imkonini beradi. Nazorat guruhida esa bu ko'rsatkichlar quyidagicha o'zgardi: reproduktiv daraja o'rtacha 1,22 martaga kamaygan, produktiv daraja 1,11 marta va ijodiy daraja 1,29 martaga ortgan (3-jadvalga qarang).

**Bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda axborot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishga tayyorlashning o'rtacha ahamiyatlilik darajasi (ta'kidlovchi bosqich)**

Guruhlar	O'zlashtirish darajasi		
	Reproduktiv	Reproduktiv	Reproduktiv
Tajriba guruhlari	11,7%	41,6%	46,7%
Nazorat guruhlari	42,5%	27,4%	30,1%
<b>O'rtacha</b>	<b>27,1%</b>	<b>34,5%</b>	<b>38,4%</b>

Bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda axborot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishga tayyorlashning o'rtacha ahamiyatlilik darajasi qiymatlarining o'zgarish dinamikasi va samaradorligi diagrammada ko'rsatib o'tilgan (1-rasmga qarang).



**1-rasm. Statistika ko'rsatkichlar diagrammasi (asoslovchi va ta'kidlovchi bosqich)**

Ta'kidlovchi bosqichda olingan natijalar bo'lajak o'qituvchilarda o'quvchilarda axborot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishga tayyorlash tizimini takomillashtirishning pedagogik shart-sharoitlari samaradorligini tasdiqladi.

### XULOSA

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda axborot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishga tayyorlash tizimini takomillashtirish bo'yicha tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Globallashtirish va axborotlashuv asri yoshlarga keng imkoniyatlar yaratishi bilan birga, ularning ma'naviy-axloqiy, jismoniy va intellektual rivojiga salbiy ta'sir etuvchi xatarlarni ham yuzaga keltirmoqda. Bu esa, bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda axborot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishga tayyorlashning pedagogik tizimini takomillashtirishga katta e'tibor qaratishni taqozo etmoqda.

2. Tadqiqot doirasida bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda axborot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishga tayyorlashning axboriy-huquqiy, axboriy-kognitiv, tashkiliy-pedagogik, axboriy-analitik, ijtimoiy-pedagogik komponentlaridan iborat tuzilmasi aniqlashtirildi. Mazkur tuzilma bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda axborot xavfsizligiga oid me'yoriy-huquqiy konseptini shakllantirish hamda virtual va kiber xurujlardan himoyalash ko'nikmasini rivojlantirishga

qaratilgan “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi”da belgilab berilgan mazkur yo’nalish bilan bog’liq maqsad va vazifalarni to’laqonli amalga oshirishni kafolatlaydi.

3. Muammo yuzasidan zamonaviy adabiyotlar tahlili asosida bo’lajak o’qituvchilarni o’quvchilarda axborot xavfsizligi ko’nikmalarini shakllantirishga tayyorgarlik darajasini baholashning kognitiv, faoliyatga doir va aksiologik mezonlari belgilab olindi.

4. Bo’lajak o’qituvchilarni o’quvchilarda axborot xavfsizligi ko’nikmalarini shakllantirishga tayyorgarligini baholashning reproduktiv (past), produktiv (o’rta), ijodiy (yuqori) darajalari aniqlashtirildi. Axborot xavfsizligi ko’nikmalarini shakllantirishga tayyorgarlikni baholashda foydalanilgan ushbu darajali yondashuv har bir mezon bo’yicha bir darajadan boshqasiga o’tishda o’rganilayotgan jarayon dinamikasini tahlil qilish imkonini berdi. Natijada, matematik-statistik tahlil qiymatlarining samarali o’sish dinamikasi real holatda aniqlandi.

5. Tadqiqot davomida oliy ta’lim tizimiga doir asosiy o’quv-me’yoriy hujjatlar, xususan, pedagogika ta’lim sohasining Davlat ta’lim standarti va o’quv rejasida axborot xavfsizligiga doir maxsus fan, shuningdek, shu maqsadlarga yo’naltirilgan to’garaklar pedagogika yo’nalishida kadrlar tayyorlaydigan oliy ta’lim muassasalarida mavjud emasligi aniqlandi. Shu jihatni hisobga olgan holda, pedagogika yo’nalishlarida “Axborot iste’moli madaniyati”, “Axborot xavfsizligi”, “Neyrolingvistik dasturlashtirish texnologiyasi” kabi elektiv kurslarni o’qitishni yo’lga qo’yish maqsadga muvofiqdir.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Pedagogika ta’lim sohasining barcha bakalavriat yo’nalishlari uchun tanlov fanlari blokida “Axborot iste’moli madaniyati” modulini o’qitishni yo’lga qo’yish lozim.

2. Pedagogik-psixologik blokda fanlar dasturiga o’quvchilarda shaxsiy axborot xavfsizligi ko’nikmalarini shakllantirish va axborot iste’moli madaniyatini tarbiyalash amaliyoti bilan bog’liq mavzularni kiritish lozim.

3. Uzluksiz ta’lim tizimining barcha bo’g’inlarida axborotdan foydalanish erkinligi hamda axborot iste’molchisining huquq va majburiyatlari to’g’risidagi fakultativ va maxsus kurslarni maqsadli joriy etish zarur.

4. Bo’lajak o’qituvchilarning ota-onalarda virtual nazorat madaniyatini shakllantirish va ijtimoiy-pedagogik faoliyatga maqsadli tayyorlashning innovatsion modellarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

#### ADABIYOTLAR RO’YXATI (REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 1059-son Qarori // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 03.01.2020 y., 09/20/1059/4265-son. (Resolution of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated December 31, 2019 No. 1059 “On the approval of the concept of continuous spiritual education and measures for its implementation” // National database of information of legislative acts, dated 03.01.2020., № 09/20/1059/4265.)

2. Абдиев Р.Ф. Философия новой информационной цивилизации. – М.: Аладос, 1994. – 336 с. (Abdeev R.F. Philosophy of a new information civilization. – M.: Alados, 1994. – 336 p.)

3. Abdujabbarova M. O’smirlar orasida olib boriladigan mafkuraviy profilaktika ishlarining ijtimoiy-pedagogik asoslari. Pedagogika fanlari nomzodi. ... diss. Avtoref. – T., 2007. – 22 b. (Abdujabbarova M. Socio-pedagogical foundations of ideological preventive work carried out among adolescents. Candidate of Pedagogical Sciences. ... diss. abstract. – T., 2007. – 22 p.)

4. Bogatireva Y. Bo’lajak pedagoglarni maktab o’quvchilarida axborot xavfsizligini ta’minlash tayyorlash: Ped. fan. dokt. ... diss. – Tula., 2014. (Bogatireva Yu. Preparation of future educators to ensure information security in schoolchildren: doctoral dissertation on pedagogy. – Tula., 2014.)

5. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti: Ped. fan. dok. ...diss. – T., 2007. – 305 b. (Begimkulov U.Sh. Theory and practice of organization and management of informatization of pedagogical educational processes: doctoral dissertation in Pedagogical Sciences. – T., 2007. – 305 p.)

6. Baydjanov B.X. Bo’lajak o’qituvchilarni o’quvchilarda axborot xavfsizligi ko’nikmalarini shakllantirishga tayyorlash tizimini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD). ...diss. – Farg’ona, 2022. – 159 b. (Baydjanov B.X. Improving the system of preparing future teachers for the formation of information security skills in students. Dissertation of Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences. - Fergana, 2022. - 159 p.)

7. Baydjanov, B. K. (2022). Methodology of Pedagogical Science and its Axiological Possibilities. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 3(10), 352–363. Retrieved from <https://globalresearchnetwork.us/index.php/ajshr/article/view/1622>

8. Davlatov O.G’. Talabalarda axborot xavfsizligini ta’minlash kompetentligini tarixiy-madaniy meros vositasida rivojlantirish. Pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD). ...diss. – Toshkent, 2018. – 177 b.

9. Davlatov O.G’. Talabalarda axborot xavfsizligini ta’minlash kompetentligini tarixiy-madaniy meros vositasida rivojlantirish: pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD). ...diss. – Toshkent, 2018. – 177 b. (Davlatov O.G.



Development of students' competence to ensure information security through the means of historical and cultural heritage. Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD). ... diss. - Tashkent, 2018. - 177 p.)

10. Yoziyeva U.L. Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarni zararli axborotlar tahdididan himoya qilishning takomillashtirilgan texnologiyasi: Ped. fan. bo'y. fal. dok. ...diss. – Nukus, 2018. – 156 b. (Yoziyeva U.L. Improved technology for protecting students from the threat of harmful information in the educational process: Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)... diss. - Nukus, 2018. - 156 p.)

11. Quronov M. Bolam baxtli bo'lsin, desangiz (Ota-onalar uchun). – T.: Ma'naviyat, 2013. – 320 b. (Kuronov M. If you say that my child should be happy (for parents). – T.: Ma'naviyat, 2013. - 320 p.)

12. Muhammad Amin Yahyo. Internetdagi tahdidlardan himoya. – Toshkent: "Movaraunnahr", 2016. – B.672. (Muhammad Amin Yahya. Protection from online threats. –Tashkent: "Movaraunnahr", 2016. – P.672.)

13. Nazarov Q. Aksiologiya. Qadriyatlar falsafasi. – T.: Ma'naviyat, 1998. (Nazarov Q. Axiology. Philosophy of values. - T.: Spirituality, 1998.)

14. Xodjayev B. Pedagogik aksiologiya. – T.: "Fan va texnologiya", 2012. – 168 b. (Khodjaev B. Pedagogical axiology. - T.: "Science and Technology", 2012. - 168 p.)